



ЧЕЛЯБИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ИНСТИТУТ КУЛЬТУРЫ

**ONLINE
CONFERENCE**

**"INNOVATIVE
ACHIEVEMENTS
IN SCIENCE 2023 "**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC-ONLINE
CONFERENCE**



ЧЕЛЯБИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ИНСТИТУТ КУЛЬТУРЫ

"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"



**"INNOVATIVE
ACHIEVEMENTS IN SCIENCE
2023"**

Part 17

Issue 2

RUSSIA 2023

COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023: a collection scientific works of the International scientific conference (27th March, 2023) – Chelyabinsk, Russia : "CESS", 2023. Part 17, Issue 2 – 86 p.

Editorial board:

Martha Merrill, PhD Kent State University, USA

David Pearce, ScD Washington, D.C., USA

Emma Sabzalieva, PhD Toronto, Canada

Languages of publication: русский, english, казахша, o'zbek, limba română, кыргыз тили, Հայերեն

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference " **INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023**". Which took place in Chelyabinsk on March 27, 2023.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

© "CESS", 2023

© Authors, 2023



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

ANTROPONIMLARNING O'RGANILISH MUAMMOSI

R.A.Mo'minova

BuxDu 2-bosqich magistranti

A.A.Haydarov

Ilmiy rahbar: BuxDu ingliz tilshunosligi kafedrası f.f.n.,prof.

Annotatsiya: *Maqolada tilshunoslikning eng asosiy bo'limi bo'lgan onomastikada antroponimlarning o'rganilishi, uning leksik tizimdagi o'rnı haqida izoh berilgan va mulohazalar bildirilgan. Antroponim tushunchasining tilshunoslikda paydo bo'lishi tarixi bo'yicha ayrim ma'lumotlar ifodalangan va shuningdek, uning nutqdagi vazifasi belgilangan.*

Kalit so'zlar: *antroponim, antroponimika, onomastika, til, madaniyat, lingvistik, ismshunoslik, etimologiya*

O'tgan asrning 60-yillari boshlarida onomastika tilshunoslik fanining eng faol o'rganilgan sohalaridan biriga aylandi. Ilmiy izlanish jarayonida tadqiqot ob'ekti va predmeti aniqlandi, hozirgi paytda esa onomastika fanining uslubiy qo'llanilishini tadqiq etuvchi soha faol rivojlanmoqda. Zero, onomastika boshqa bir qator lingvistik fanlar, jumladan, sotsiolingvistika, onomasiologiya, matn lingvistikasi, stilistika, kommunikativ lingvistik bilan o'zaro aloqadorlikdagi fan hisoblanadi.

Tilning onomastika sohasining katta qismini antroponimlar tashkil qiladi. Antroponim – bu insonni belgilash uchun xizmat qiladigan shaxs (atoqli) nomi. Antroponim , deb yozadi Azim Hojiev ,(anthropos-odam+onuma-nom). Kishining atoqli oti, ism.

Antroponomika . Leksikologiyaning,(onomastikaning) kishi otlarini (ismlarini) o'rganuvchi bo'limi.¹¹

Kishi ismlaridan tashqari, familiyalar, otasining ismi (yoki patronimlar), laqablar, taxalluslar, kriptonimlar (yashirin ismlar) ham mavjud bo'lib, ularning barchasi inson identifikatorlari hisoblanadi. Antroponimlarning barcha turlari shaxsni atash va unga murojaat qilish imkoniyatidan foydalana olish vazifasini bajaradi.

Antroponim belgi bo'lganligi uchun ma'noga ega. Bu ma'no bir necha belgilar bilan ifodalanadi:

1. Antroponimning tashuvchisi ayrim boshqa bir ob'ekt emas, balki inson ekanligini tushunish.

2. Biror kishining qaysi etnik guruhga mansubligi yoki qaysi bir millatga tegishli ekanligini ko'rsatish.

¹¹ A. Hojiev . Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. –T.: O'qituvchi, 1985.-B.17.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

3. Insonning qaysi genderga qarashliligini aniqlash: erkak yoki ayol¹².

Antroponimlarning vazifalariga kelsak, olimlar turli funksiyalarini e'tirof etadi. Misol uchun, V.D.Bondaletov "Rus onomastikasi" asarida antroponimlarning nominativ, aniqlash va farqlash kabi asosiy vazifalarini belgilab berdi. U antroponimlarning qo'shimcha funksiyalariga ijtimoiy, hissiy, akkumulyativ, ko'rsatuvchi, maqsadli, ifodali, estetik va uslubiy vazifalarini kiritdi¹³.

V.I.Suprun antroponimlar aloqalarni o'rnatishda muhim rol o'ynaydi¹⁴, deb hisoblaydi.

Antroponimlarni tadqiq maqsadiga qarab bir necha guruhlarga ajratish mumkin. Jumladan, milliy, hududiy, ijtimoiy, yoshga oid, jins (gender), diniy.

Masalan, yuqorida keltirilgan xususiyatlarga ko'ra Aziz antroponimi jinsi bo'yicha erkak va etnik tomonidan o'zbek tilida so'zlashuvchi jamoaning a'zosi. Antroponimlarning boshqa vazifalariga tilning akkumulyativ, xalqning madaniyati haqidagi ma'lumotlarni saqlovchi vazifasini kiritish mumkin.

A.V.Suslova va A.V.Superanskaya "Ruscha nomlar haqida" kitobida shaxs ismlari turli xil millatlar tarixini ifodalaydi, ularda urf-odatlar, madaniy qadriyatlar, tarixiy bosqichlar, millatlarning hayot tarzi, odamlarning ijodi, dinlar va aqidalar o'z aksini topadi, deb ta'kidlaydi¹⁵.

S.I.Garagulya "Shaxs nomi madaniy va zamonaviy ingliz tilining tarixiy kategoriyasi sifatida" dissertatsiyasida madaniy jihatdan asoslangan quyidagi nomlarni keltiradi:

1. Milliy tan olingan nomlar (Oliver; Lincoln). Bunday ismlarda ko'pgina assotsiativ xususiyatlar (obraz, xatti-harakat, tashqi ko'rinish) bor.

2. Puritan nomlari (Love, Be-thankful, Faith, Hope). Puritan harakati puritan nomlarining paydo bo'lishiga olib keldi. Nomlar sifatida "mercy", "grace", "charity", "prudence", "sage", "virtue", kabi abstrakt (mavhum) otlar ishlatila boshlandi. Ismlarning bunday yaratilishi muayyan vaqtda madaniyatning ustuvorligini ochib berdi.

3. Injil nomlari (Abraham, Israel);

4. Mashhur yozuvchilar, adabiy qahramonlar, aktyorlar, musiqachilarning ismlari, xonandalar (Elvis, Madonna, Rhatt) va b.¹⁶

Kulturologik funksiyaga asoslanib, antroponimlar milliy-madaniy ahamiyati bilan ajralib turadi, chunki ularning jamoaviy va shaxsiy ahamiyati bevosita xalq yoki millat madaniyatidan kelib chiqadi¹⁷.

¹² Красных V.V. Etnopsixolingvistika i lingvokulturologiya: kurs leksiy. – M.: ITDGK «Gnozis», 2002. 284 s. – S. 45.

¹³ Bondaletov V.D. Russkaya onomastika: Uchebnoe posobie dlya studentov pedagogicheskix institutov. – M.: Prosveshchenie, 1983. – 224 s. – S. 18.

¹⁴ Suprun V.I. Antroponimy v vokativnom upotreblenii // Izvestiya Uralskogo gosudarstvennogo universiteta, 2001. – № 20. – S.92–96.

¹⁵ Suslova A.V., Superanskaya A.V. O russkix imenax. – L.: Lenizdat, 1991. – 222 s. – S. 3.

¹⁶ Гарагуля С.И. Английское личное имя как объект изучения языка, истории и культуры. – Белгород: Изд-во БелГТАСМ, 2002. – 382 с. – С. 110.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

Tildagi atoqli otlarning katta bir guruhini kishilarga qo'yiluvchi maxsus nomlar tashkil etadi. Kishilarning atoqli otlari fanda antroponimlar deb yuritiladi. Grekcha *antropos* – odam, *inson*, *nomos* – ot, *ism*, *nom* aniqlanishi demakdir¹⁸.

Antroponimlar xuddi boshqa so'zlar singari tildagi qadimiy hodisalardan. Buni insoniyatning qadimiy o'tmishiga oid xalq og'zaki ijodi namunalari va yozma yodgorliklar tilida saqlanib qolgan kishi nomlari, afsonaviy va mifologik qahramonlarning nomlari yaqqol ko'rsatadi.

Kishiga ism berish va kishilarning atoqli otlari qadimiy tarixga ega bo'lib, bolani nomlashda ma'lum tarixiy davr, iqtisodiy-siyosiy hayot, ma'naviy turmush doirasining turli-tuman urf-odatlarini muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, diniy tasavvur bolaning nomlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Turkiy xalqlarning V-VII asrlar tarixini o'zida ifodalagan O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklari matnlarida uchrovchi bir qator ismlar (Burisangmusht, Oqbosh, Qoraxon, Qorakur, Kultegin, Bilkaxoqon va boshqalar) turkiy xalqlarning eng qadimgi antropoleksemalaridir. Davrlar o'tishi bilan bir qator ismlar eskiradi va iste'moldan chiqadi, ularning o'rniga yangi-yangi atoqli otlar kirib keladi. Kishilarning orzu-umidlari, intilish va ideallari bilan bog'liq ismlar uzoq yashaydi. Hozirgi davr kishilari ismlarining asosiy qismini ana shunday nomlar tashkil qiladi.

Antroponimlar masalasi rus tilshunosligida ancha keng va har tomonlama o'rganilgan. Bu soha doirasida T.F.Vedina¹⁹, I.M.Ganjina²⁰, Yu.Fedosyuk²¹, A.V.Superanskaya²², M.V.Karpenko²³, A.V.Suslova²⁴, T.V.Toporova²⁵, N.A.Baskakov²⁶, O.I.Fonyakova²⁷, L.M.Щетинин²⁸lar bir qator qimmatli tadqiqotlarni amalga oshirishgan. Turkologiya va o'zbek tilshunosligida esa Sh.Zafarov, M.Odilov, Ya.Menajiev, X.Azamatov, E.Begmatov, E.Qilichev, M.Shamsieva, I.Xudoynazarov, U.Nosirov²⁹ va boshqa olimlar bu borada qimmatli tadqiqotlar amalga oshirishgan.

¹⁷ Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. – М.: Индрик, 2005. – 1040 с. – С. 103.

¹⁸ Begmatov E.A. O'zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013. – B.264. – b.10-b.

¹⁹ Ведина Т.Ф. Словарь личных имен. – М., 2000.

²⁰ Ганжина И.М. Словарь современных русских фамилий. – М., 2001.

²¹ Федосюк Ю. Русские фамилии. – М., 1986. – 240 с.

²² Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – М., 1973. – 366 с.

²³ Карпенко М.В. Русская антропонимика. – Одесса, 1970. – 42 с.; Имя собственное в художественной литературе // *Филологические науки*. 1986. № 4. – С. 34-40.

²⁴ Суперанская А.В., Сусллова А.В. Современные русские фамилии. – М., 1991. – 176 с.; Суперанская А.В. Что такое топонимика? – М., 1985. – 185 с.

²⁵ Топорова Т.В. Культура в зеркале языка: древнегерманские двучленные имена собственные. – М., 1996. – 253 с.

²⁶ Баскаков Н.А. Русские фамилии тюркского происхождения. – М., 1979. – 280 с.

²⁷ Фоныкова О.И. Имя собственное в художественном тексте. – Л., 1990. – 103 с.

²⁸ Щетинин Л.М. Русские имена: Очерки по донской антропонимии. – Ростов-на-Дону, 1978. – 252 с.

²⁹ Menajiev Ya., Azamatov X. Ismingiening ma'nosi nima? – T.: Fan, 1964.; Begmatov E. Ismingieningma'nosi nima? // O'qituvchilar gaeetasi. – 1965 yil 1 **aprel**; Irisov A. "Ismingizning ma'nosi nima?" // O'zbek tiln va adabiyoti. – 1965 yil. – **5-son**; Menajiev Ya., Azamatov X., Abdurahmonov D., Begmatov E. Ismingizning ma'nosi nima? – T.: Fan, 1968. – B. 6-14.; Shamsieva M. Kishilarga atab qo'yilgan nomlar // Adabiyotshunoslik va tilshunoslik masalalari. 4-kitob. – T.: **UzFA**, 1962. – B. 456-463.; Begmatov E. Kishi nomlarining ma'nolariga doir // O'zbek tili va adabiyoti



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.A. Hojiev . Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. –T.: O'qituvchi, 1985.-B.17.
2. Begmatov E.A. O'zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013. –B.264
3. Suslova A.V., Superanskaya A.V. O russkix imenax. – L.: Lenizdat, 1991. – 222
4. Nosirov U. O'zbek tilidagi kishi nomlari haqida ba'zi mulohazalar // Ilmiy asarlar. Qarshi. – T, 1965. – B. 194-197.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМА РАЗРАБОТКИ МАРКЕТИНГОВОЙ СТРАТЕГИИ АО «ЎЗТЕМИРЎЉЉЉОВЧИ»

Рахматов Зиёдулло Носирович

*Ташкентский государственный транспортный университет (ТГТУ)
Ташкент, Узбекистан*

Рашидов Диловар Нажмиддинович

*Ташкентский государственный транспортный университет (ТГТУ)
Ташкент, Узбекистан*

Аннотация: *Последние тенденции свидетельствуют о растущей конкуренции между видами транспорта в Республике Узбекистан, обусловленной развитием железнодорожного сектора. В условиях растущей конкуренции руководству АО «Ўзтемирўљљўловчи» необходимо внедрять самые современные подходы и методы организации пассажирских перевозок. Маркетинговые мероприятия играют важную роль в условиях сильной конкуренции и повышают конкурентоспособность системы железнодорожного пассажирского транспорта. Следовательно в данной статье рассматриваются существующие недостатки и проблемы в сфере пассажирских перевозок в Республике Узбекистан. Также даны рекомендации, как правильно и эффективно использовать элементы маркетинга в увеличении доли рынка компании. В статье также рассмотрена блок-схема оценки эффективности маркетинговых мероприятий.*

Ключевые слова: *маркетинговая мероприятия, маркетинговая стратегия, маркетинг, пассажирские перевозки, железнодорожный транспорт.*

ВВЕДЕНИЕ

В последние годы в сфере железнодорожного транспорта, как и в других отраслях, особое внимание уделяется разработке и реализации различных маркетинговых программ, обеспечивающих эффективное решение экономических, экологических, социальных и культурных сфер, системных проблем.

Сегодня, в зависимости от типа отрасли, методы разработки и реализации маркетинговых программ отличаются друг от друга и варьируется уровнем эффективности. [1], [2], [3], [6].

Поэтому необходимо разработать конкретные маркетинговые мероприятия для данной отрасли. И, на наш взгляд, процесс разработки